

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gulyamov.S.S, Abdullayev A.M. *Prognozirovaniye i modelirovaniye natsionalnoy ekonomiki*.
2. Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'rayev "Iqtisodiyot Nazariyasi" Moliya 2002
3. O.H. Hamroyev "Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari" TDIU 2004.
4. A. Razzoqov, Sh. Toshmatov, N. O'rmonov. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi" Moliya 2002.
5. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
6. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)

## **AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHDA YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASINING O'RNINI VA AHAMIYATI**


**Mardonov Aminjon Amon o'g'li**  
*ISFT institutining amaliy matematika va informatika fani o'qituvchisi*

Yangi O'zbekistonning rivojlanish ko'rsatkichlari tom ma'noda aholi daromadlari va turmush tarziga hamda farovonlik darajasiga hamohangdir. Bugungi davrda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Taraqqiyot strategiyasi loyihasi:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash;
- adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishga qaratilgan 7 ta ustuvor yo'nalishdagi masalalarni qamrab oladi.

Loyihada mutlaqo yangi yondashuv qo'llanilib, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasi asosida baholash tizimi joriy etilmoqda.

Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi va uni 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida qariyb 100 ta maqsadlarga erishish nazarda tutilmoqda.[2]



**1-rasm. Aholi pul daromadlarining tarkibiy tuzilishi**

Aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining oxirgi varianti BMT tomonidan 1978 yilda taqdim etilgan. Bular:

1. Tug'ilish, vafot etish va boshqa aholini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar
2. Turmushning sanitariya-gigiyena sharoitlari
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish
4. Turar joy sharoitlari
5. Ta'lim va san'at
6. Mehnat sharoiti va bandlilik
7. Aholining daromadlari va harajatlari
8. Yashash qiymati va iste'mol baholari
9. Transport vositalari
10. Dam olishni tashkil etish
11. Ijtimoiy ta'minot
12. Insonning erkinligilar.[2]

Quyidagi jadvalda ba'zi yillar miqyosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi aholisini umumiy daromadlari tarkibi keltirib o'tilgan.

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasi aholisini umumiy daromadlari tarkibi, % da**

Ko'rsatkichlar nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Umumiy daromadlar - jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan: Birlamchi daromadlar	80,6	77,5	76,2	75,4	73,8	70,2
shundan: Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	77,4	74,6	73,5	73,2	71,7	67,9
Mol-mulkdan olingan daromadlar	3,1	2,9	2,7	2,1	2,1	2,4
Transfertilardan olingan daromadlar	19,4	22,5	23,8	24,6	26,2	29,8

Bu jadvaldan ko`rishimiz mumkinki yillar miqyosi bo`yicha ishlab chiqarishdan olingan daromadlar kamayib, transfertlardan olingan daromadlar ko`payib borgan.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. N.M.Soatov, H.G'. Nabiyev, D.H.Nabiyev, G.N.Tillaxo'jayeva "Statistika" darslik Toshkent-2011.500-550v
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmoni. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/>
3. Индексы и индикаторы человеческого развития. Обновленные статистические данные 2018. ПРООН, стр. 22-24.

**AHOLI TURMUSH DARAJASI VA UNI O'ZBEKISTONDA  
OSHIRISHNING ISTIQBOLLI IMKONIYATLARI**

***Ilyosov Asrorjon Axrorjon o'g'li***

*PhD, dotsent v.b.*

***Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'li***

*Farg'ona Politexnika instituti*

*M 24-23 I guruh magistranti*

Aholining turmush darajasini oshirish mamlakatimiz O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadidir. Mustaqillik yillarida yurtimizda aholi turmush darajasini yaxshilash borasida qator natijalarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Xalq daromadlari oshishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatidan o'zgaradi[1]."

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2022-yilda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga doir bir qancha dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dasturlar doirasida hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlash orqali aholi real daromadlarini oshirish keltirib o'tilgan[2].

Mustaqillikdan buyon mamlakatimizda aholining umumiy daromadlarini oshirish, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarni oshirish, ta'lim, tibbiyot va boshqa barcha ishchi-xodimlarining malakasini oshirish, uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy qulayliklar yaratish borasidagi ishlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunimizda bu boradagi ishlar samarasi aholi turmush darajasidagi ijobiy o'zgarishlarda o'z ifodasini topmoqda. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida aholi turmush darajasini yuksaltirish bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish